

“Bumerang” texnologiyasi

Bu texnologiya o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.



Texnologiyaning maqsad - o‘quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o‘quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat - munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash hamda o‘quv jarayoni mobaynida har bir o‘quvchi tomonidan o‘z baho (ball) larini egallashga imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Texnologiyaning qo‘llanishi – amaliy mashg‘ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg‘ulotlari hamda suhbat-munozara shaklidagi darslarda yakka tartibda, kichik guruh va jamoa shaklida foydalanishi mumkin.



Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar. O‘quvchi dars jarayonida mustaqil o‘qishlari, o‘rganishlari va o‘zlashtirib olishlari uchun mo‘ljallangan tarqatma materiallar (o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha qisqa matnlar, suratlar, ma’lumotlar).

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- 1) o‘quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi;
- 2) o‘quvchilar dars (mashg‘ulot)ning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- 3) o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish uchun mavzu bo‘yicha matnlar tarqatiladi;
- 4) berilgan matnlar o‘quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o‘rganiladi;



5) har bir guruh a‘zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;

6) yangi guruh a‘zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o‘rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya’ni bir-birlariga so‘zlab beradilar, matnni o‘zlashtirib olishlarishga erishadilar;

- 7) berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- 8) yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar;
- 9) darsning qolgan jarayonida o'quvchilar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda "guruh hisobchisi" tayinlanadi;
- 10) o'quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi o'quvchilarga savollar bilan murojaat etadilar, og'zaki so'rov o'tkazadilar;
- 11) har bir guruh a'zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi;
- 12) guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi ("guruh hisobchilari" berilgan javoblar bo'yicha ballarni hisoblab boradilar);
- 13) guruh a'zolari tomonidan to'plangan umumiy ballar yig'indisi asosida g'olib guruh aniqlanadi.



Namunaviy mavzu: Irsiyat va o'zgaruvchanlik – tirik organizmlarning muhim xususiyatlari.